



## BOSHLANG'ICH SINFLARDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

Ne'matov Oybek Erkin o'g'li

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrasasi assistent o'qituvchisi

E-mail: oybek.nematov1991@gmail.com

Toshkanova Shaxnoza Ilhamovna

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18044532>

### ARTICLE INFO

Received: 21<sup>st</sup> December 2025

Accepted: 22<sup>nd</sup> December 2025

Published: 24<sup>th</sup> December 2025

### KEYWORDS

*axborot, texnologiya, kompyuter,  
boshlang'ich ta'lim,  
samaradorlik.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada IT sohasida yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlar axborot texnologiyalari haqida umumiy ma'lumotlar hamda umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida axborot texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari yoritilgan.*

**Kirish.** Bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonda yosh avlodga sifatli ta'lim tarbiya berish ularni har tomonlama barkamol shaxs qilib tarbiyalash pedagoglarning zimmasiga katta ma'suliyat yuklamogda. Ta'lim sifatini oshirish o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda axborot texnologiyalaridan keng foydalanish takomillashib bormoqda.

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususan elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarning mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklarni tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta'minlashni ko'zda tutuvchi 220 dan ortiq ustuvor loyihalarni amalga oshirish boshlangan.

Bundan tashqari, 40 dan ortiq axborot tizimlari bilan integratsiyalashgan geoportalni ishga tushurish, jamoat transporti va kommunal infratuzulmani boshqarishning axborot tizimini yaratish, ijtimoiy sohani raqamlashtirish va keyinchalik ushbu tajribani boshqa hududlarda joriy qilishni nazarda tutuvchi "Raqaqli Toshkent" kompleks dasturi amalga oshirilmoqda.

Hozirgi paytda o'quv materiallari axborotlarni ekranda ko'rsatish imkoni vujudga kelishi va rivojlanishi bilan o'quv jarayonida erishilgan yutuqdan foydalanish keng yoyilib bormoqda. Zamonaviy axborot texnologiyasi kompyuter texnikasi va aloqa vositalari sohasidagi yutuqlarga tayanadi. Ularning gurkurab rivojlanishi turli axborotlardan samarali foydalanishga qaratilgan jamiyatning rivojlanishiga turtki bo'lidi.

"Axborot" so'zi lotincha informatio so'zidan olingan bo'lib, tushintirish, biror narsani bayon qilish, yoki biror narsa yoxud xodisa haqidagi ma'lumot ma'nosini anglatadi.

Inson yashaydigan dunyo turli moddiy va nomoddiy obyektlar, shuningdek ular o'rtasidagi o'zaro aloqa va o'zaro ta'sirlardan, ya'ni jarayonlardan tashkil topgan. Sezgi a'zolari, turli asboblardan va hokozalar yordamida qayd etiladigan tashqi dunyo dalillari ma'lumotlar deb ataladi. Ma'lumotlar aniq vazifalarni qayd etishda zarur va foydali deb topilsa axborotga aylanadi. Demak, ma'lumotlarga u yoki bu sabablarga ko'ra foydalanilmayotgan yoxud texnik

vositalarda qayta ishlanayotgan, saqlanayotgan, uzatilayotgan belgilar, yo yozib olingan kuzatuvlar sifatida qarash mumkin. Agar bu ma'lumotlardan biror narsa to'g'risidagi mavhumlikni kam darajaga keltirish uchun foydalanish imkoniyati tug'lsa, ma'lumotlar axborotga aylanadi. Demak, amaliyotda foydali deb topilgan ya'ni foydalanuvchining bilimini oshirgan ma'lumotlarinigina axborot deb atasak bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili:

Boshlang'ich ta'lim jarayonida axborot texnologiyalardan foydalanish zamonaviy pedagogik adabiyotlar ko'plab tadqiqotchilar tomonidan yoritilgan. Ko'pchilik olimlar AKT boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilish jarayonini faollashtirishi, darsning samaradorligini oshirishi va mustaqil o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishini ta'kidlaydi. Rossiyalik pedagog L.Vygotskiy nazariyasiga ko'ra, bola rivojida vizual materiallar va ko'rgazmalik muhim o'rin tutadi, zamonaviy AKT vositalari esa aynan shunday ko'rgazmali o'qitish imkoniyatini oshiradi. Yevropa tadqiqotchisi J.Bruner (1966) " O'yin orqali o'rganish" konsepsiyasini ilgari surgan. Ushbu nazariyaga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun o'yin shaklidagi topshiriqlar eng samarali usullardan biridir. Zamonaviy interaktiv dasturlar ( Kahoot, LearningApps, Quizizz va boshqalar) aynan shu tamoyilga asoslanib o'zbek tadqiqotchilaridan X.To'xtaboyev (2021) AKT Dan foydalanilgan darslarda o'quvchilar faolroq ishtirok etishini, mavzuni tezroq eslab qolishini va darsga bo'lgan motivatsiyasini kuchayishini ta'kidlaydi. Ko'plab ilmiy manbalarda aks ettirilishcha elektron o'quv platformalari (EduPage, Kundalik, Moodle) boshlang'ich sinf bolalarida mustaqil izlanish o'z o'zini nazorat qilish va ma'suliyat hissini shakllantiradi. A. Saidova(2022) o'z maqolasidan AKT orqali taqdim etilgan video darslar, interaktiv mashqlar va virtual laboratoriyalar o'quvchilarning mustaqil ishlash qobiliyatini oshirishda samarali ekanini ko'rsatadi.

Masalan, qog'ozga telefon raqamlarini ma'lum tartibda yozib, birovga ko'rsatsangiz, u buni biror axborot bermaydigan malumot sifatida qabul qiladi. Biroq har bir telefon raqami qarshisiga muayyan korxonaga yoki tashkilot nomi, uning faoliyat turi yozib qo'yilsa, avvalgi ma'lumot axborotga aylanadi. Ma'lum vazifalarni hal etish natijasida yangi ma'lumotlar-bilimlar, ya'ni tizimlashtirilgan xaqqoniy yoki sinovdan o'tgan xabarlar paydo bo'ladi. Ular qonunlar, nazariyalar hamda tasavvur va qarashlarning boshqa majmui sifatida umumlashgan bo'lgan. Keyinchalik bu bilimlar o'zga vazifalarni hal etish yoki oldingisini aniqlashtirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar tarkibiga kiradi.

**Axborot texnologiyalari nima va ta'lim jarayonida foydalanishning qanday afzalliklari bor?**

**Axborot texnologiyalari** - bu odamlarning bilimlarini rivojlantiradigan, ularning texnika va ijtimoiy jarayonlarini boshqarish bo'yicha imkoniyatlarni kengaytiradigan ma'lumotlarni tashkil etish, saqlash, ishlab chiqish, tiklash, uzatish usullari va texnik vositalaridir. Yana shuningdek, axborot texnologiyalar deganda ma'lum bir maqsadga erishish uchun amalga oshiriladigan jarayonlar zanjiridan iborat yaratuvchi faoliyat tushuniladi.

Axborot texnologiyari, birinchidan axborotning sirkulatsiyasi va ishlov berish majmui, ikkinchidan, bu jarayonlarning tasviridir.

Zamonaviy axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga tadbiiq etilishi ta'limda yangicha o'quv metodlarini keng ravishda qo'llashga imkoniyat yaratib beradi. Maxsus ixtisoslashtirilgan auditoriyalar, chunonchi, kompyuter, televizor, vedio magnitafon bilan taminlangan auditoriyalarda dars o'tish borgan sari ommalashib bormoqda. Hatto uni alohida videometod sifatida talqin etilmoqda. Ayiqsa, o'quv jarayoniga kompyuterning kirib kelishi, barcha didaktik funksiyalarni muvafaqqiyatli bajarish imkoniga ega videometodni keng qo'llash imkonini beradi.

**Multimedia** - bu informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari yordamida o'quv materiallarini tinglovchilarga to'liq yetkazib berishning mujassamlashgan holdagi ko'rinishidir. multimedia va internet texnologiyalarining paydo bo'lishi va keng tarqalishi axborot texnologiyalarini muloqot, tarbiya, jahon hamjamiyatiga kirib borish vositasida

ishlatish imkonini beradi. Ta'lim jarayonida, dars mashg'ulotlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ishlatilishi o'qishga bo'lgan talabalarning qiziquvchanligini mushtaqil ishlarining samaradorligini oshiradi. O'qitish jarayonida multimedias vositalaridan foydalanish o'qitish sifati va samarasini oshirishning eng qulay usullaridan biri hisoblanadi. Multimedia vositalari yordamida olib borilgan audio-vedio muloqot o'quvchining darsga bo'lgan qiziqishini va bilim olishga bo'lgan havasini oshiradi. Ta'lim sohasida multimedia vositalari yordamida tinglovchilarga bilim berish afzalliklari quyidagilardan iborat:

- ta'lim jarayonida berilayotgan materiallarni chuqurroq va mukammalroq o'zlashtirish imkoniyatining mavjudligi;
- ta'limning turli shakllaridan bir vaqtning o'zida foydalanish imkoniyatining paydo bo'lishi;
- boshqa fan sohalari bilan yaqindan aloqa qilish ishtiyoqining yanada oshishi;
- dars jarayonida bilim olish vaqtining qisqarishi natijasida vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo'linishi;
- olingan bilimlarni kishi xotirasida uzoq muddat saqlab qolish va uni amaliyotda qo'llash imkoniyati.

Boshlang'ich sinfda ta'lim samaradorligini oshirishda axborot-texnologiyalari orqali dars o'tishning afzalliklari juda ko'p. Masalan 1-sinf o'quvchilarini harflar bilan tanishtirganda monitorda harflarning yozilishi, o'qilishi bilan ko'rsatmali tarzda tanishtirilsa, bolalarning o'rganishi osonroq bo'ladi. Bundan tashqari o'tilayotgan yangi harfdan boshlanadigan "So'z top" o'yini o'tkazilsa bolalarning yangi harf o'rganish bilan birgalikda fikrlash qobiliyatlarini ham oshiradi.

Matematika darslarida darslikda berilgan misol masalalardan tashqari dars orasida har xil qiziqarli matematik topshiriqlar monitorda ovozli tarzda berib borilsa, bu o'quvchilarning darsdan zerikib qolmasliklari va fanga bo'lgan qiziqishlarini yanada orttiradi.

Ona tili darslarida ham axborot texnologiyalaridan keng foydalanish mumkin. Masalan sifat mavzusini o'tayotganda bolalar yoqtirgan multi qahramonning ko'rinishini ekranda aks ettirib uning sifatlarini sanash orqali mavzuni tushuntirsak, o'quvchilarning xotirasida osonroq saqlanadi. Bundan tashqari kompyuterda har bir mavzu yuzasidan ochiq va yopiq testlar, qiziqarli boshqotirmalar, o'yinlar, videoroliklar tayyorlab darsda qo'llash mumkin.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, o'sib kelayotgan yoshlarni bugungi jamiyat talablariga javob beradigan avlod bo'lib yetishishida axborot texnologiyalarining o'rni beqiyosdir. Boshlang'ich sinflarda dars jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish, o'quvchilarning hozirjavob, zukko, kreativ bo'lishlari bilan birga darsning samaradorligiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga ta'limda so'nggi texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarda axborotlarni jamlash, saralash, uzatish ko'nikmalarini ham shakllantirib vaziyatga to'g'ri baho berishni ham o'rgatadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.10.2020-yildagi PF-6079-son
2. "Pedagogik mahorat" ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2024, № 6
3. "Pedagogik fanlarni o'qitish metodikasi" B.T. Jurayev
4. "Axborot texnologiyalar" o'quv qo'llanma M.Aripov M.Begalov U.Begimqulov M.Mamarajabov Toshkent-"Noshir"-2009